FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 1 - noyabr 212-11-167-Q/23 Quvasoy shahar hokimligi

2024-yilda Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabr kundagi “Aholi badligi to‘g‘risida”gi Qonunning 9-bobi, O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 7-bobi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘i *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatga olingan, ro‘yxat raqami 3163)* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 203-sonli Qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Shahar hududida ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o‘rinlarda muhtojlar deb ataladi) uchun ish o‘rinlarini band qilish maqsadida

shahardagi korxona, tashkilot va muassasalarda hamda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (keyingi o‘rinlarda tashkilotlar deb ataladi) ishlayotgan xodimlar soniga nisbatan, 2024-yilda muhtojlarni ishga joylashtirish uchun belgilangan eng kam ish o‘rinlari miqdori 1-ilovaga;

muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash bo‘yicha maxsus komissiyaning tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Muhtojlar uchun ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar toifalari bo‘yicha quyidagi umumiy tartiblarga asoslanishi lozim:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan;

umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan;

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun — ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan;

nogironlar uchun — mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

odam savdosi qurbonlari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan;

atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun – ularning kasbi bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari.

3. Ushbu qarorning 2-bandida ko‘rsatilgan toifaga mansub shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarilishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi belgilab qo‘yilsin.

4. Shahardagi barcha tashkilotlar rahbarlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ish o‘rinlar tashkil etilishini ta’minlasinlar;

10 kunlik muddatda band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 foiz hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta’minlasin hamda bu to‘g‘risida shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yil boshlangungacha axborot bersinlar;

muhtojlar uchun ish o‘rinlarini qolgan qismini band qilib qo‘yishni kalendar yilining birinchi choragi mobaynida ta’minlasinlar va bu to‘g‘risida shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tugagandan keyin 10 kundan kechikmay axborot bersinlar;

tashkilotlar har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga belgilangan shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsinlar;

tashkilotlar tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan shahar hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaraladi;

mavsumiy va vaqtinchalik ish o‘rinlarini muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining

2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘iga muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - rejadan ortiq qabul qilingan har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-apreldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligiga ko‘maklashishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 203-son qaroriga muvofiq 2022-yil 1-maydan boshlab Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg‘armasida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya berilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Muhtojlar uchun belgilangan sondan ortiqcha zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari tashkil etgan, shu jumladan, ishlab chiqarish uchastkalari (sexlar) tashkil etish uchun noturar joy binolarini birinchi navbatda ajratish yo‘li bilan tashkilotlar uchun imtiyozlar belgilansin.

8. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda bajarmagan tashkilotlarning rahbar va mas’ul xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarorining 21-bandiga asosan muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha shahar hokimining qarorini bajarmagan tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha shahar hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

9. Shahar hokimligi Axborot-xizmati (Mirzayev), “Isfayram” ro‘znomasi (Karimova) bilan birgalikda mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

10. Ushbu qaror 2024-yil 1-yanvar kunidan boshlab kuchga kirishi munosabati

bilan shahar hokimining 2022-yil 08-noyabrdagi 363-11-167-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari hamda shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **Z.K.To'rakulov**

Quvasoy shahar hokimining
2023-yil 1-noyabrdagi
212-11-167-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yilda tashkilotlarda muhtojlarni ishga joylashtirish belgilangan ish o'rinlari miqdori

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlar nomi)	Shtat jadvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni (7%)	shu jumladan:							
				14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Umumiy o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni (3%)	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o'rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamyatli kasaliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o'rinlari soni
1	"MAKTABGACHA VA MAKTAB TALIMI BOLIMI"	51	3	1	1		1				
2	"1-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	101	2		1			1			
3	"2-SONLI XORIJIY TILLARGA IDUM"	80	3		1		1	1			

4	"1-SONLI MATEMATIKA VA FIZIKA FANLARIIGA IDUM"	121	8	1	5	1	1				
5	"4-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	39	2		1		1				
6	"5-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	76	3	1		1	1				
7	"6-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	46	1				1				
8	"7-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	36	2		1		1				
9	"8-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	63	1				1				
10	"9-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	38	2		1		1				
11	"10-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	46	1				1				
12	"11-SONLI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA IDUM"	69	4		2		2				
13	"12-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	48	1		1						
14	"13-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	49	3		2		1				
15	"14-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	60	4		3		1				
16	"15-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	58	1		1						
17	"16-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	70	4		2		2				
18	"17-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	57	4		3		1				
19	"18-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	95	6		4		2				
20	"19-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	67	4		2		2				
21	"20-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	53	1		1						

22	"21-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	47	1		1						
23	"22-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	49	1		1						
24	"23-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	36	2		1		1				
25	"24-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	67	4		2		2				
26	"25-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	54	1		1						
27	"26-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	40	1		1						
28	"27-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	46	1		1						
29	"28-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	40	1		1						
30	"29-UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABI"	106	7		4		3				
31	"3-SONLI DMTT"	34	1		1						
32	"4-SONLI DMTT"	49	1		1						
33	"5-SONLI DMTT"	44	2	1			1				
34	"6-SONLI DMTT"	42	1		1						
35	"7-SONLI DMTT"	34	1	1							
36	"8-SONLI DMTT"	45	1			1					
37	"10-SONLI DMTT"	26	1		1						
38	"12-SONLI DMTT"	77	1					1			
39	"13-SONLI DMTT"	26	1		1						
40	"14-SONLI DMTT"	29	1			1	0				
41	"15-SONLI DMTT"	40	1				1				
42	"16-SONLI DMTT"	36	1	1							
43	"17-SONLI DMTT"	42	1		1						
44	"18-SONLI DMTT"	34	1		1						
45	"19-SONLI DMTT"	36	1	1							
46	"21-SONLI DMTT"	39	1				1				
47	"22-SONLI DMTT"	55	1		1						
48	"24-SONLI DMTT"	35	1				1				
49	"25-SONLI DMTT"	38	1				1				
50	"26-SONLI DMTT"	34	1		1						
51	"27-SONLI DMTT"	41	1	1							
52	"28-SONLI DMTT"	41	1				1				

53	"90-SONLI MAKTAB INTERNATI"	149	8	1	2	1	2	1	1		
54	"11-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI"	76	2	1	1						
55	"1-SON SPORT MAKTABI"	70	2		1	1					
56	"2-SON SPORT MAKTABI"	44	3		1	1	1				
57	"AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI"	32	1		1		0				
58	"BARKAMOL AVLOD BOLALAR MAKTABI"	55	3	1	1		1				
59	"QUVASOY SHAHAR IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABI"	48	3	1	1		1				
64	"QUVASOY YO`LLARDAN FOYDALANISH"	66	2			1		1			
65	"QUVASOY SHAHAR TIBBIYOT BIRLASHMASI"	1131	6	1	1		2	1	1		
66	"QUVASOY SHAHAR SEO VA JSB"	61	1				1				
69	"QUVASOY SHAHAR MADANIYAT ISHLARI BO'LIMI"	65	2	1	1						
70	"QUVASOY SHAHAR IRRIGATSIYA BO'LIMI"	46	3	1		1	1				
73	"OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI"	418	10	2		2	2	2	2		
	Jami:	**4946**	**148**	**17**	**64**	**11**	**44**	**8**	**4**	**0**	**0**

Quvasoy shahar hokimining
2023-yil 1-noyabrdagi
212-11-167-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Shaharda muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash bo‘yicha maxsus komissiyaning TARKIBI

t/r	F.I.O.	Lavozimi
1	X.Xoldarov	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, ***komissiya raisi***
2	E.Tashbekov	Shahar Kambag‘allikni qisqarturish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i, ***komissiya mas’ul kotibi***
Komissiya a’zolari:		
3	D.Asqarov	Shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
4	A.Muratov	Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
5	M.Maxmudov	Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi shahar bo‘limi boshlig‘i
6	N.Xojimaxsudov	Shahar Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i v.v.b
7	F.Isaqov	Shahar Ijtimoiy ko‘nikma markazi boshlig‘i